



ASADULLO HABIB – POET

Hilola Rahmatova

1st-year Master's student

"Persian Studies and Afghan Studies" Faculty

Tashkent State Institute of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

N. Kabirova

PhD

Associate Professor at the "Persian Studies and Afghan Studies" Faculty

Tashkent State Institute of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Literature, poetry, literary device, emotional experience, poet, analysis, new poetry, symbol, Asadullo Habib.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article discusses the poetic works of Asadullo Habib, a prominent representative of modern Afghan Dari literature, a well-known literary scholar, writer, and poet. Specifically, it examines the themes, genre characteristics, and content of the poems included in his collection “خط سرخ” (“Red Line”).

ASADULLO HABIB - SHOIR

Hilola Rahmatova

1-kurs magistratura bosqichi talabasi

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

N. Kabirova

PhD

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi dotsenti

TDShU

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Adabiyot, she’r, tasviriy vosita, ruhiy kechinma, shoir, tahlil, yangi she’r, ramz, Asadullo Habib.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy Afg‘oniston dariyzabon adabiyotining yirik vakili, taniqli adabiyotshunos olim yozuvchi shoir Asadullo Habibning shoirlik ijodiyoti xususan uning (“خط سرخ”) “Qizil chiziq” to‘plamiga kirgan she’rlarining mavzusi, janr xususiyati, mazmuni bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi.

АСАДУЛЛО ХАБИБ – ПОЭТ

Хилола Рахматова

Студентка 1 курса магистратуры

Факультет иранистики и афганистики

Ташкентский государственный институт востоковедения

Ташкент, Узбекистан

H. Кабирова

PhD

доцент факультета иранистики и афганистики

Ташкентский государственный институт востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Литература, стихотворение, литературное средство, эмоциональный опыт, поэт, анализ, новое стихотворение, символ, Асадулло Хабиб.

Аннотация: В данной статье рассматривается поэтическое творчество Асадулло Хабиба, крупного представителя современной афганской дари-литературы, известного литератора, писателя и поэта. В частности, анализируются темы, жанровые особенности и содержание стихотворений, вошедших в его сборник "خط سرخ" ("Красная линия").

“Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”¹

Shavkat Mirziyoyev

XX asrning 20-yillarida Afg‘oniston dariyzabon adabiyotida she’riy janrlar hukmron edi. Ilk ma’rifatparvar shoirlar ilk bor dariyzabon adabiyotiga eski she’riy qoliplarda yangi zamon mavzularini olib kira boshladilar, ammo she’riyat to XX asrning 50-yillarigacha asosan an’anaviy janrlar: g‘azal, ruboiy, qasida, masnaviy kabi shakllarida yetakchilik qilar edi.

XX asrning 60-yillaridan e’tiboran dariy she’riyati, umuman adabiyotida keng zamonaviy mavzular ijtimoiy masalalar o‘rtaga chiqdi, adabiyotda hikoyachilik ham jadal rivojlana boshladi. Dariyzabon adabiyotining yirik vakili, nasrnavis, va shoir Asadullo Habibning keng ijod yo‘li aynan shu davrdan boshlanadi.

¹ <http://m.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>

Asadullo Habib 1942-yilda Kobulning “Oshiqonu orifon” ko‘chasida badavlat ajdodlarning qashshoqlashgan avlodi xonardonida dunyoga keladi. Yozuvchining otasi turkman zamindorlari avlodi bo‘lib, onasi pashtun qavmidan edi. Asadulloning yoshlik va o‘sirinlik yillari qiyinchilik bilan kechadi. Badiiy adabiyotga qiziqish Asadullo Habib qalbida bolalik paytlaridayoq uyg‘onadi. U o‘z adabiy tajribalarini she’riyatdan boshlab, hali maktabda o‘qib yurgan kezlaridayoq she’rlar yoza boshlaydi, uning ilk mashqlaridan ayimlari Maymanada pashtuncha nomli gazetida Zayir taxallusi ostida bosilib ham chiqadi. Afg‘onistonning ko‘zga ko‘ringan adabiyotshunosi, publisisti, bedilshunos olim Asadullo Habib 2022-yilda 81 yoshida vafot etdi.

Habib yozuvchilik bilan bir vaqtida qalami o‘tkir shoir hamdir. Asadullo Habibning bizgacha 4ta she’riy to‘plami qolgan, (“خط سرخ”) “Qizil chiziq” (1984, ”آتش در نارنجزار“) “Norenjzordagi alanga”, “Zulmat bilan vidolashu” (”قدیل در مهتاب“)، (“Oydindagi qandil”) va uning she’riy to‘plamlarida mumtoz adabiyotning an’naviy she’rlari: g‘azal, ruboiy, qasidalar qatori, zamonaviy modern she’r, ozod she’r, erkin she’r shaklida yozgan asarlari mavjud. Asadullo Habib ijodining 70-yillardan keyingi davriga ahamiyat bersak asosan, “yangi she’r” uslubi, an’naviy uslubga nisbatan ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Ushbu “yangi she’r” uslubi Afg‘oniston adabiyotida Eron adabiyotidan kirib kelgani ma’lum bo‘lib, dariyzabon adabiyotda “yangi she’r”ning ilk namunalari XX asrning 50-yillarida yuzaga kelgan bo‘lsa ham, o‘sha yillar bu tamoyil an’naviylik qobig‘ini yorib chiqa olmadi, adabiy jarayonning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmadı.

Shoirning (“آتش در نارنجزار“) “Norenjzordagi alanga” ushbu she’riy to‘plami o‘zining ta’kidlashicha, g‘azallardan iborat. Demak bu to‘plamini an’naviy uslubda yozilgan desak bo‘ladi. (“قدیل در مهتاب“) “Oydindagi qandil” she’riy to‘plami 2010-yilda Balgariyada nashrdan chiqqan, ushbu to‘plam Asadullo Habibning so‘ngi to‘plami hisoblanadi.

Asadullo Habibning she’riy to‘plamlari turli mavzu va ramzlarni hamda badiiyligi turlicha masalan, uning (“خط سرخ”) “Qizil chiziq” she’riy to‘plamidagi she’rlarining mavzusi ijtimoiy-maishiy va lirik bo‘lib, asosan yangi va an’naviy she’r uslubida yozilgan, Shoirning ushbu to‘plamiga o‘zining 37 ta she’rini kiritgan.

Asadullo Habib she’riyati mavzular doirasi ancha keng bo‘lib, u o‘z fikrlarini mediativ yo‘l bilan berishini ko‘ramiz. Ushbu to‘plami janr xususiyatlari, an’naviy shakl nuqtai nazaridan “she’re nav” uslubidagi she’rlarini uchratamiz. Ushbu maqolada misol sifatida biz shoirning “qora quyosh” (”خورشید سیاه“) she’ri haqida so‘z yuritamiz.

Ushbu she’r 5 bandlik har bir bandi 4 misradan iborat bo‘lgan, har misralar aro qofiyalanish sistemasiga ega bo‘lgan she’r desak bo‘ladi. She’rda bir qator o‘ziga xos obrazlilik tamoyillari mavjud. Avvalo she’rning mazmuni haqida gapirsak, she’r ramziylik tamoyiliga asoslanganni uchun shoir aytmoqchi bo‘lgan mavzu va mazmunning tagiga yetib borish ham biroz mushkullikni yuzaga

keltiradi. Ammo diqqat bilan o‘qiladigan bo‘lsa unda qo‘llangan ramz ham va ularning talqini orqali she’rning mazmuni ham, bandma band ochilib boriladi. Ushbu she’rda bir qator ramzlarini uchratishimiz mumkin jumladan, she’rning nomida ham ramziy ma’no aks etgan, ya’ni “Qora quyosh” nomi bevosita Afg‘onistoniga tegishlidir.

این زمین سرخ و خورشیدش سیاه

نوحه بسیار است اینجا گوش نیست

“Bu yerning zamini qizildir, quyoshi qora

Nolalar ziyoddir, tinglaguvchi yo’q bu yerda”

Shoir yuqoridagi bayt orqali Afg‘on xalqining dardini tinglovchi quloq yoqligi ostida, davlat amaldorlari xalq ahvoliga qiziqmas ekanligiga hamda “qora quyosh” deya Afg‘onistonning o‘ziga ishora qiladi. She’rning davomida biz shoirning ramzlarida aynan afg‘on xalqining og‘ir ahvoliga va hukumdorlarning ular ahvoliga beparvoligiga ishoralarning davomini ko‘ramiz. Chindan ham bu achinarli vaziyat, bugungi kunda Afg‘oniston xalqining holati butun dunyoga ma’lum, xalqning chekayotgan dardini kuylaguvchi ijodkorlar doyim ham u yerda topilmaydi. Asadullo Habib ana shunday bir xalqparvar ijodkor edi. Va shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, ushbu to‘plam bo‘yicha ilmiy ishimiz davom etmoqda.

Xulosa

Asadullo Habib ijodi dariyzabon adabiyotining XX asr ikkinchi yarmidan boshlab shakllangan yangi bosqichini aks ettiradi. Uning nasriy va she’riy merosi Afg‘oniston adabiyotida zamonaviy va an’anaviylik o‘rtasidagi dinamik o‘zgarishlarni o‘zida mujassam etgan. Habib o‘z ijodida an’anaviy janrlar – g‘azal, ruboiy, qasidalar bilan bir qatorda, zamonaviy erkin she’r va modern she’riyat usullaridan ham foydalanib, dariy adabiyotida yangi yo‘nalishlarga asos solgan. Umuman olganda, Asadullo Habib ijodi dariyzabon adabiyotida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, uning asarlari ijtimoiyadolat, xalq hayoti, falsafiy mushohada va poetik tajribalarni o‘zida mujassam etgan. U o‘z davrining yetakchi adabiy shaxslari qatoridan joy olib, Afg‘oniston adabiyotida milliy va zamonaviy yo‘nalishlarning uyg‘unlashuviga katta hissa qo‘shgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Habib A. Oydin. Qissa va hikoyalar. Toshkent, 1982
2. Jo‘rayev T. Ong oqimi va tasviriylik.–T.:Fan. -1994–120 b.
3. Mannonov A. Afg‘oniston xalqlari folklori va mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent-2001. 414 b.
4. Asozoda.X. Adabiyoti sadai XX-i forsii darii Afg‘oniston, 138 b.
5. Сидқий. Сайре адаб дар Афғонистон, 11 б.
6. حبیب، اسدالله. خط سرخ. کابل: ۱۳۶۲. ص ۹۷
7. حبیب، اسدالله، سه مزدور. کابل ۱۳۶۶

8. <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va-madaniyat>